



A-PAY

# «A-Pay» ELEKTRON PUL TIZIMIDA AKSIYALAR OTKAZISH QOIDALARI (TARTIBLARI)

2022-yil «05» sentyabr



# 1. ASOSIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu qoidalar (bundan keyin matnda – Qoidalar deb yuritiladi) ragbatlantiruvchi Aksiyalarni tashkil etish va otkazishning umumiy shartlarini tartibga soladi. Har bir aniq Aksiyani otkazish tartibi ushbu Qoidalarga qoshimcha hisoblanadi.
- 1.2. Aksiyani otkazish hududi – Ozbekiston Respublikasidir.
- 1.3. «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ – «A-Pay» Elektron pul Tizimlari Operatori (bundan keyin matnda – Operator, Tizim Operatori deb yuritiladi) Aksiya tashkilotchisi hisoblanib, yuridik manzili: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, A.Qahhor 9-tor kochasi, 1A-uyda joylashgan, STIR 306 344 019, IFUK 58290.
- 1.4. Hamtashkilotchilar, Hamkorlar haqidagi ma'lumot har bir muayyan Aksiyada korsatiladi.
- 1.5. Aksiya otkazilishidan maqsad Elektron pullarini ommalashtirish va targib qilish, shuningdek, «A-Pay» Elektron pul Tizimida taklif etilayotgan xizmatlar va servislarga xayrixohlikni oshirishdan iboratdir.
- 1.6. Aksiya tavakkalga asoslangan lotereya yoki boshqa bir oyin emas.
- 1.7. Aksiyada qatnashish ixtiyoriy bolib, Ishtirokchilarning Operatorning <https://www.a-pay.uz> manzili boyicha rasmiy saytida va/yoki mobil ilovada joylashgan ushbu Qoidalari bilan tanishib chiqqanligini va ularga sozsiz roziligini bildiradi.
- 1.8. Aksiya otkaziladigan kunlarda uning shartlarini bajargan Ishtirokchilarni ragbatlantirish soni cheklanmagan.
- 1.9. Ma'lum bir Aksiyani otkazish shartlari va muddatlari togrisidagi barcha batafsil ma'lumot Operatorning <https://www.a-pay.uz> manzilidagi saytida va/yoki mobil ilovada joylashtiriladi.
- 1.10. «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Operator bilan shartnoma tuzgan Ishtirokchilari Aksiya Qatnashchilari bolishlari mumkin.
- 1.11. Aksiyaning otkazilish muddatlari muayyan Aksiyani Operatorning saytida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilayotganda korsatiladi.

# 2. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

- 2.1. Aksiya – bu uning majburiy sharti Ishtirokchi tomonidan «A-Pay» Elektron pul Tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladigan operatsiyalar va Ishtirokchilarni ragbatlantirish bilan kechadigan Aksiya tashkilotchisi tashabbusi bilan otkaziladigan reklamali ragbatlantiruvchi yoki boshqa marketing tadbiridir.
- 2.2. Ishtirokchi – Operator bilan shartnoma tuzgan, ushbu Qoidalarga qoshilgan va muayyan Aksiyada bayon etilgan shartlarga kora Aksiyada qatnashuvchi, «A-Pay» Elektron pul Tizimining Ishtirokchilari.
- 2.3. Operator Sayti – Operator tomonidan Internet tarmogida <https://www.a-pay.uz> manzili boyicha joylashtirilgan veb-sahifaning umumlashgan holati.
- 2.4. Mobil ilova – smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarida ishlashga moljallangan dasturiy ta'minot.

### 3. AKSIYALARNI OTKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

- 3.1. Aksiyada qatnashish uchun Ishtirokchi «A-Pay» Elektron pul Tizimining Ishtirokchisi bolishi, Aksiyaning ushbu umumiy qoidalarining, shuningdek, Operator saytida va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan muayyan Aksiyaning shartlarini bajarishi zarur.
- 3.2. Aksiya Ishtirokchilariga nisbatan qoyiladigan talablarga mos kelmagan Ishtirokchilar Aksiya Qatnashchilari deb tan olinmaydi. Aksiyada korsatilgan talablarga mos keluvchi va ushbu Qoidalarda hamda Aksiya talablarida korsatilgan operatsiyalarni amalga oshirgan Ishtirokchilar Aksiya Qatnashchilari deb e'tirof etiladi hamda har bir muayyan Aksiyada korsatilgan bonuslar va boshqa mukofotlarni olishga da'vo qiladilar.
- 3.3. Aksiya Ishtirokchilari taqdim etadi, Tashkilotchi esa ishlov berilishi shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish Siyosatiga va Ozbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma'lumotlar togrisida»gi Qonuniga muvofiq ishlov beriladigan shaxsiy ma'lumotlarni Ishtirokchilardan oladi.
- 3.4. Aksiya Tashkilotchisi Ishtirokchi Aksiyada qatnashishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bolgan ziyonlar, xarajatlar va boshqa har qanday chiqimlarni qoplamaydi hamda tolamaydi.
- 3.5. Tashkilotchi Operator Sayti va/yoki mobil ilovada Aksiyalar togrisidagi qoshimcha axborotni va Aksiya shartlariga ozgartirishlar kiritish boyicha ma'lumotlarni joylashtirish yoli bilan chop etishga haqli.
- 3.6. Aksiyani otkazish tartibi, shuningdek, uni otkazish muddatlari har bir muayyan Aksiyada korsatiladi.

### 4. AKSIYA ISHTIROKCHILARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### 4.1. Ishtirokchi quyidagilarga majbur hisoblanadi:

- 4.1.1. Ushbu Qoidalar va muayyan Aksiya talablariga rioya qilish;
- 4.1.2. Operatorga bonuslar va boshqa mukofotlarni olishda zarur bolgan ishonchli, togrri hamda muhim ma'lumotlarni taqdim etish;
- 4.1.3. Aksiyada ishtirok etgan taqdirida ushbu umumiy Qoidalar, shuningdek, muayyan Aksiya talablarida nazarda tutilgan barcha zarur harakatlarni amalga oshirish;
- 4.1.4. Begona nomni taqdim etmaslik, begona hujjat va/yoki notogri axborot (ma'lumot)dan foydalanmaslik;
- 4.1.5. Aksiyada ishtirok eta turib, aynan esa ushbu umumiy Qoidalarda korsatilgan, shuningdek, har bir aniq Aksiyada qayd etilgan, Aksiyaning qatnashish maqsadi bolgan konklyudent harakatlar, operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirgan holda Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarni oz zimmasiga oladi:  
Aksiya otkazilishi bilan bogliq shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berilishiga oz roziligini bildiradi; Ushbu Qoidalar bilan kelishadi;  
Ozining Qoidalarda belgilangan boshqa talablarga mosligini tasdiqlaydi. Tashkilotchi Ishtirokchining yoshini, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, har bir muayyan Aksiyani

otkazish maqsadida zarur bolgan boshqa axborot taqdim etilishini talab qilishga haqlidir. Ishtirokchi Tashkilotchi istalgan vaqtda, oldindan ogohlantirmagan, sababini izohlamagan holda unga bonuslar va boshqa mukofotlar olishini rad etishi holatiga oz roziligini bildiradi va buni qabul qiladi.

#### 4. 2. Aksiya Ishtirokchisi quyidagi huquqlarga ega:

4. 2. 1. Ushbu Qoidalarga va muayyan Aksiya otkazilishi talablariga muvofiq Aksiyada qatnashishni qabul qilish;
4. 2. 2. Aksiya otkazilish muddatlari va shartlari togrisida axborotni olish;
4. 2. 3. Aksiyada qatnashishni istalgan vaqtda rad etish.

#### 4. 3. Aksiya Ishtirokchisi sifatida belgilangan talablarga javob bermaydiganlar **Aksiya Ishtirokchilari tomonidan tan olinmaydi va** unda qatnashish huquqiga ega bolmaydilar.

#### 4. 4. Tashkilotchining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

4. 4. 1. Tashkilotchi Aksiyani ushbu Qoidalar va muayyan Aksiya talablarida belgilangan tartibda otkazishni oz zimmasiga oladi;
4. 4. 2. Internet resursida Aksiyani otkazish uchun texnik imkoniyatlar bilan ta'minlaydi.

#### 4. 5. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

4. 5. 1. Istalgan vaqtda, bir tomonlama tartibda, oldindan ogohlantirmagan holda ushbu Qoidalarga va muayyan Aksiya talablariga ozgartirishlar kiritish yoki Operator saytida va/yoki mobil ilovada axborotni joylashtirish yoli bilan Aksiyani bekor qilishi mumkin. Qoidalarning yangi versiyasi va/yoki aniq bir Aksiyaning talablari agar boshqa tartiblar korsatilmagan bolsa, ular Operator Saytida va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan vaqtdan boshlab, haqiqiy hisoblanadi.
  4. 5. 2. Agar Aksiyani qandaydir sababga kora rejalashtirilgan tarzda, jumladan, Aksiya Operatori tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sabab boyicha otkazib bolmasa, u oz xohishiga kora bir tomonlama tartibda Aksiya otkazishni bekor qilishi yoki vaqtincha toxtatishi mumkin. Aksiyani muddatidan oldin tugallash/toxtatish da'vo qilish uchun sabab bola olmaydi.
  4. 5. 3. Elektron pochta manziliga SMS-xabar va boshqa imkoniyat usullarida axborot xabarlarini jonatish.
  4. 5. 4. Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa muloqotlarga kirishmaslik;
  4. 5. 5. O'z xohishiga kora, Ishtirokchilarga sababini izohlamagan va ular bilan yozishmalarga kirishmagan holda agar Ishtirokchi ushbu Qoidalar, Bonus Dasturining Qoidalari va aniq Aksiya Qoidalari buzib, harakat qilgan bolsa, Aksiya Ishtirokchilarining har qanday harakatlarini haqiqiy emas deb e'tirof etish.
4. 6. ushbu Qoidalarga muvofiq bonuslar va boshqa mukofotlarni taqdim etish Tashkilotchining majburiyati emas, balki huquqi hisoblanadi. Ushbu Qoidalarda hech narsa Ishtirokchi yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilotchi va/yoki Hamtashkilotchi, va/yoki Aksiya Hamkorining Ishtirokchi yoki boshqa uchinchi shaxs tomonidan har qanday shartnomani tuzish, chegirma, bonuslar taqdim etish yoki boshqa (har qanday) harakatlarni kafolatlangan holda amalga oshirish majburiyati sifatida talqin qilinishi va baholanishi mumkin emas.
  4. 7. Tashkilotchining Ishtirokchi oldidagi javobgarligi Ishtirokchi ega bolgan mukofotlash huquqi bilan cheklanadi.
  4. 8. Tashkilotchi xohishiga kora, Ishtirokchilarga sabablarini tushuntirmagan va ular bilan yozishmalarga kirishmagan holda Aksiya Ishtirokchisining har qanday harakatlarini haqiqiy emas deb tan olish, shuningdek, Tashkilotchida Ishtirokchi ma'lumotlarni soxtalashtirishi va/yoki foydani chiqarishi bilan bogliq asosli shubha paydo bolganda istalgan Ishtirokchini Aksiyada kelgusida qatnashini taqiqlash

huquqini ozida saqlab qoladi.

## 5. JAVOBGARLIK

- 5.1. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari oldida quyidagilarga majbur emas:
  - 5.1.1. Ishtirokchilar tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun, jumladan, ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchsizligi (shubhali) va oz vaqtida berilmaganligi uchun;
  - 5.1.2. Ishtirokchilarga bevosita xizmat korsatuvchi kompaniya, internet-provayderlar, aloqa operatorlari ishidagi uzilishlar, Ishtirokchi oldida Tashkilotchining majburiyatlarini bajarish imkoni bolmagan boshqa kutilmagan vaziyatlar uchun;
  - 5.1.3. Telekommunikatsiya va elektr tarmoqlaridagi, zararli dasturlarning harakati, shuningdek, uchinchi shaxslarning Tashkilotga tegishli dasturiy majmuaga ruxsatsiz kirish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan noinsoflarcha harakati tufayli majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishli bajarmaganligi oqibatida kelib chiqqan nosozliklar uchun;
  - 5.1.4. Ozbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan fors-major vaziyatlar uchun;
  - 5.1.5. Aksiya Ishtirokchilarining qandaydir xatolari oqibatlari, jumladan, ularga yetkazgan zararlar uchun.

## 6. YAKUNIY QOIDALAR

- 6.1. Ushbu Qoidalar Operatorning veb-saytida va/yoki mobil ilovasida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.
- 6.2. Tashkilotchi bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni ozgartirish yoki Operatorning veb-sayti va/yoki mobil ilovasida tegishli xabarni joylashtirish orqali Ishtirokchini xabardor qilish bilan Aksiyani bekor qilishga haqli. Operator veb-saytida va/yoki mobil ilovasida tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab, Qoidalar ozgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya bekor qilinadi.
- 6.3. Muayyan Aksiya talablarida korsatilgan Aksiyada ishtirok etish uchun harakatni amalga oshiruvchi Ishtirokchi quyidagilarni taqdim etadi:
  - 6.3.1. ushbu Qoidalar shartlari va Tashkilotchi tomonidan belgilangan muayyan Aksiya Qoidalariga toliq va sozsiz rozilik, Tashkilotchi tomonidan belgilangan Aksiyada ishtirok etish talablari bilan kelishish;
  - 6.3.2. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek Ishtirokchi tomonidan boshqa ma'lumotlar (foydalanuvchi identifikatori, foydalanuvchi nomi, elektron pochta manzili, tizimda royxatdan o'tish paytida ilgari berilgan ma'lumotlar) quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni toplash, qayd etish, tizimlashtirish, toplash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, ozgartirish), ajratib olish, foydalanish, egasizlantirish, blokirovkalash, ochirish, yoq qilish kabi harakatlar bilan qayta ishlanishiga rozilik berish. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda ham, ulardan foydalanmasdan ham amalga oshiriladi. Ishtirokchi, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatishga toliq roziligini beradi. Rozilik Aksiyaning butun muddati davomida va u tugaganidan keyin uch yil davomida amal qiladi. Aksiya Ishtirokchisi Aksiya Tashkilotchisiga royxatdan otgan pochta orqali tegishli

bildirishnomani qabul qilinganligi togrisida bildirishnoma yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini qaytarib olishga haqli. Agar shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni bekor qilish mukofotni olishga tosqinlik qilsa, Aksiya Tashkilotchisi Ishtirokchini bunday mukofotni olishdan mahrum etishga haqli.

6. 3.3. Shaxsiy ma'lumotlarni, boshqa ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

Tashkilotchida Aksiya otkazish bilan bogliq yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bolgan majburiyatlarni bajarish;

Tashkilotchi tomonidan Aksiyaga nisbatan, jumladan, elektron aloqa tarmoqlari, SMS-xabarlarini yuborish, elektron pochta va boshqa usullar orqali yuborish yoli orqali Ishtirokchilar bilan aloqalarni amalga oshirish.

6. 4. Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi Ishtirokchi ushbu Qoidalarda va muayyan Aksiya talablarida korsatilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab haqiqiy hisoblanadi va ushbu Qoidalar hamda muayyan Aksiyaning amal qilish muddati davomida haqiqiy hisoblanadi.
6. 5. Aksiya Tashkilotchisining ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan holatlar va asoslar boyicha qabul qilingan qarorlari yakuniy hisoblanadi va qayta korib chiqilmaydi. Aksiya Tashkilotchisi qaror qabul qilish asoslari va sabablari haqida izoh bermaydi.
6. 6. Ushbu Qoidalarning biron-bir bandining haqiqiy emasligi yoki bajarilmasligi boshqa bandlarning haqiqiylikiga yoki bajarilishiga ta'sir qilmaydi. Agar biron-bir qoida notogri yoki boshqa tarzda amalga oshirilmaydigan yoki noqonuniy deb topiladigan bolsa, u holda ushbu Qoidalar amal qilishda davom etishi va agar ularda haqiqiy bolmagan qoidalar mavjud bolmasa, ularning shartlariga muvofiq talqin qilinishi lozim boladi.
6. 7. Ushbu Qoidalarning shartlari va muayyan Aksiya qoidalari ortasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlarning munosabatlariga muayyan Aksiya Qoidalarining bandlari qollaniladi.
6. 8. Aksiyaga oid barcha savollar boyicha Ishtirokchi Tashkilotchiga murojaat qilishi mumkin.
6. 9. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bogliq barcha xarajatlarni mustaqil ravishda tolaydilar (shu jumladan, Internetga kirish bilan bogliq xarajatlarni).
6. 10. Ushbu Qoidalar Aksiyalarni otkazishning yagona rasmiy Qoidalaridir. Ushbu Qoidalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar va/yoki ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalar yuzaga kelgan taqdirda, bunday talqin va/yoki tushuntirish boyicha yakuniy qaror togridan-togri va faqat Aksiya Tashkilotchisi tomonidan qabul qilinadi.
6. 11. Muayyan Aksiyalarning talablari Aksiyaning otkazish Qoidalariga nisbatan majburiy ilova hisoblanadi.
6. 12. Ushbu Qoidalar Tashkilotchining veb-saytida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilgan.